

**O'ZBEKISTON TAJRIBASIDA DEMOKRATLASHUV DINAMIKASI VA
FUQAROLIK JAMIYATI BARQARORLIGI: TARIXIY-IQTISODIY ASOSLAR****Jomonqulov Bekzod Shokir o'g'li**

Guliston davlat universiteti III

bosqich tayanch doktoranti

Tel. +99894 003-52-51

Annotatsiya. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik islohotlar jarayoni va fuqarolik jamiyatining shakllanishi tarixiy-iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyatning zaifligi va davlat institutlarining nisbatan kuchliligi kuzatilmoqda. Ushbu maqolada Sharq va G'arb rivojlanish modellari qiyosiy tahlil qilinib, sun'iy sug'orishga asoslangan iqtisodiy tizim hamda Sovet davrining merosi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati sustligining asosiy sabablari sifatida yoritiladi. Demokratlashtirish jarayonida milliy xususiyatlarni hisobga olish zarurligi ilmiy asoslanadi.

Kalit so'zlar: demokratlashtirish, fuqarolik jamiyati, sun'iy sug'orish, davlat boshqaruvi, ijtimoiy nazorat, huquqiy madaniyat, tarixiy omillar, Sharq va G'arb, Sovet davri, demokratik islohotlar, iqtisodiy tizim, huquqiy tizim.

Аннотация. В годы независимости процесс демократических реформ и формирование гражданского общества в Узбекистане тесно связаны с историко-экономическими факторами, в результате чего наблюдается слабость общества на фоне относительной силы государственных институтов. В данной статье проведен сравнительный анализ моделей развития Востока и Запада, и показано, что основанная на искусственном орошении экономическая система, а также наследие советского периода являются главными причинами слабости гражданского общества в Узбекистане. Научно обоснована необходимость учета национальных особенностей в процессе демократизации.



Ключевые слова: демократизация, гражданское общество, искусственное орошение, государственное управление, общественный контроль, правовая культура, исторические факторы, Восток и Запад, советский период, демократические реформы, экономическая система, правовая система.

Annotation. The process of democratic reforms and the formation of civil society in Uzbekistan during the independence period are intrinsically linked to historical and economic factors, resulting in a relatively weak society compared to strong state institutions. This article presents a comparative analysis of Eastern and Western development models, demonstrating that the irrigation-based economy and the Soviet legacy are the primary causes of the weakness of civil society in Uzbekistan. The study substantiates the need to consider national peculiarities in the democratization process.

Keywords: democratization, civil society, artificial irrigation, state governance, social control, legal culture, historical factors, East and West, Soviet period, democratic reforms, economic system, legal system.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng demokratik islohotlarni amalga oshirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida salmoqli qadamlar tashlandi. Biroq bugungi demokratik taraqqiyot darajasini rivojlangan xorijiy davlatlar bilan qiyoslaganda, hali sezilarli ortda ekanimizni tan olishga to'g'ri keladi. Bu holatni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Harakatlar strategiyasi taqdimotidagi mashhur so'zlari ham tasdiqlaydi: "Bugun bizda shaklan demokratiya mavjud, endi biz uni haqiqiy demokratiyaga aylantirishimiz lozim" [1, b. 12-13]. Ushbu fikr demokratik institutlar shaklan mavjud bo'lsa-da, ularning mazmun-mohiyati hali to'la shakllanmaganini ko'rsatadi. Darhaqiqat, jamiyat a'zolarida demokratik madaniyat va huquqiy ong yetarli darajada bo'lmasa, shaklan qaror topgan demokratiya amalda samarali faoliyat ko'rsata olmaydi.



O'zbekistonda davlat institutlari anchayin kuchli bo'lsa-da, fuqarolik jamiyati institutlari zaifligicha qolayotganining sabablari chuqur ilmiy tahlilni talab etadi. Fuqarolik jamiyatining sust rivojlanishi oqibatida jamiyat va davlat o'rtasida nomutanosiblik vujudga keladi. Ushbu nomutanosiblik sabablarini o'rganish hamda demokratlashtirish jarayonining xususiyatlarini aniqlash orqali jamiyatimizdagi mavjud muammolar yechimlarini topish mumkin. Xususan, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining zaifligi tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan iqtisodiy va siyosiy omillar bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda demokratiya va fuqarolik jamiyatini shakllantirish butun dunyoda eng samarali taraqqiyot yo'li sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq har bir jamiyatning o'ziga xos milliy, madaniy va tarixiy xususiyatlari mavjud bo'lib, xalqaro tajriba milliy mentalitetga mos ravishda qo'llanishi lozim. Shu bois O'zbekiston ham demokratik islohotlarni amalga oshirishda rivojlangan davlatlar tajribasini ijodiy o'zlashtirishga, bir vaqtning o'zida milliy xususiyatlarni saqlab qolishga alohida e'tibor bermokda. Demokratik islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan jamiyatning huquqiy madaniyati va fuqarolik faolligi darajasiga bog'liq.

Mazkur maqolada O'zbekistonda demokratlashtirish jarayoni va fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi Sharq va G'arb mamlakatlari rivojlanish yo'llarini qiyosiy tahlil qilish orqali o'rganiladi. Sharq jamiyatlaridagi siyosiy tizimlar rivojiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy-iqtisodiy omillar hamda mustamlaka va Sovet davri merosining bugungi demokratik islohotlarga ta'siri tahlil qilinadi.

Tadqiqot uslubi. Tadqiqotda tarixiylik prinsipi hamda qiyosiy tahlil uslubiga tayangan holda, O'zbekistonning demokratlashuv jarayoni umumiy tarixiy jarayonlar kontekstida ko'rib chiqildi. Sharq va G'arb jamiyatlarining taraqqiyot modellari o'rtasidagi farqlar sistemali yondashuv asosida o'rganilib, tarixiy-taqqoslash (komparativ) metodi qo'llandi. Xususan, strukturaviy-tarixiy yondashuv orqali Sharq mamlakatlaridagi sug'orma dehqonchilik iqtisodiyoti va G'arb mamlakatlaridagi lalmi dehqonchilik (yomg'irga asoslangan) iqtisodiyoti solishtirildi. Bu yondashuv orqali iqtisodiyotning bazaviy omillari siyosiy va huquqiy institutlarning shakllanishiga qanday ta'sir qilgani



tahlil qilindi. Bundan tashqari, tadqiqot doirasida huquqiy-normativ manbalar tahlili, jumladan O'zbekiston Respublikasining demokratik islohotlarga oid dasturiy hujjatlari, Prezident nutqlari va strategik rejalaridagi ma'lumotlar ham ko'rib chiqildi. Ilmiy-nazariy asos sifatida xalqaro siyosiy-iqtisodiy nazariyalar, jumladan Karl Vittfogelning “gidravlik sivilizatsiya” nazariyasi kabi yondashuvlar hamda mahalliy mutaxassislarning ilmiy xulosalari qiyosiy o'rganildi. Tadqiqot uslubiyati doirasida tarixiy-huquqiy tahlil usuli yordamida Sharq jamiyatlarida huquq va axloqning o'zaro nisbatini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

Umuman, tadqiqot metoda va yondashuvlarining uyg'unligi O'zbekiston demokratiya modelining o'ziga xos omillarini aniqlash, ayniqsa fuqarolik jamiyati rivojiga to'sqinlik qilgan omillarni aniqlash imkonini berdi. Olingan ma'lumotlar asosida demokratik islohotlar jarayonida milliy tarixiy saboqlar va xalqaro tajribani uyg'unlashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston va umuman Sharq jamiyatlarida fuqarolik jamiyatining zaif rivojlanishiga ikkita asosiy omil sabab bo'lgan. Birinchi omil – Sharq jamiyatlarining tarixiy-iqtisodiy rivojlanishida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning ustuvor bo'lishidir. Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston hududida qadimdan suv resurslarini boshqarish va taqsimlash bevosita davlat zimmasida bo'lib kelgan. Sug'orma dehqonchilik sharoitida yerga xususiy mulkchilik cheklangan bo'lib, davlat suv manbalarini nazorat qilish orqali iqtisodiy jarayonlarni qattiq boshqargan. Bu holat tarixan davlat hokimiyatining kuchayib, jamiyatning davlatga qaram bo'lib qolishiga olib kelgan[3, p. 35-38]. Natijada Sharq mamlakatlarida davlat hokimiyati kuchli, fuqarolik jamiyati esa sust bo'lib shakllangan.

Ikkinchi omil – XX asrdagi Sovet tuzumining uzoq yillik hukmronligi davrida fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy negizlari izdan chiqarilgani bilan bog'liq. Sovet davlati sharoitida barcha mustaqil jamoat institutlari yo'q qilindi, shaxsiy tashabbuslar va ijtimoiy faollik qattiq cheklab qo'yildi. Natijada mustaqillik arafasida jamiyat fuqarolik faolligi jihatidan passiv, davlatga to'la qaram holatda edi. Tadqiqot



natijalariga ko'ra, aynan shu ikkala omil O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi G'arb standartlaridan orqada qolishining bosh sabablaridir. Shuningdek, qiyosiy tahlil davomida Sharq va G'arb jamiyatlarining huquqiy madaniyatidagi farqlar aniqlandi. G'arb jamiyatlarida qadimdan huquqiy normalar asosiy tartibga soluvchi mexanizm bo'lib xizmat qilgan; individual erkinlik va xususiy mulkchilik qadriyat sifatida shakllanib, jamiyatning mustaqilligini ta'minlagan. Sharq jamiyatlarida esa huquqiy normalardan ko'ra an'ana va axloq me'yorlari kuchliroq rol o'ynagan. Bu farq ham bevosita iqtisodiy omillarga borib taqaladi: G'arbda lalmi dehqonchilik tufayli alohida xo'jaliklar mustaqil bo'lib, huquqiy tartibot ustuvor bo'lgan; Sharqda sug'orma dehqonchilik tufayli resurslar markazlashgan tartibda taqsimlanib, natijada davlat hokimiyati ustuvorligi shakllangan[3, b. 37-41; 4, p. 77-81].

Yuqoridagi natijalar O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish yo'lida milliy tarixiy-iqtisodiy xususiyatlarni inobatga olish muhimligini ko'rsatadi. Sun'iy sug'orish iqtisodiyoti va Sovet davri merosi O'zbekistonda demokratik institutlar rivojiga sekinlashtiruvchi ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, mustaqillik yillarida bu to'siqlarni bartaraf etish uchun bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirildi. Tadqiqot natijasida mamlakatimiz demokratlashtirish jarayonida mahalliy sharoitni hisobga olgan holda, jamiyat nazoratini kuchaytirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish asosiy vazifa ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tahlil va muhokama. Sharq jamiyatlarida davlat hokimiyatining kuchayish sabablari yuzasidan turli nazariyalar mavjud. Ulardan biri Karl Vittfogelning “gidravlik sivilizatsiya” nazariyasi bo'lib, u yirik sug'orish inshootlarini barpo etish zarurati Sharqda markazlashgan va kuchli hukumat – ya'ni “oriental despotism” (sharqona despotizm)ni yuzaga keltirgan, degan fikrni ilgari suradi [3, p. 39-48]. Ammo mazkur nazariyani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yirik irrigatsiya inshootlari qadimda nafaqat Sharqda, balki qadimgi Gretsiya, Rim kabi G'arb jamiyatlarida ham qurilgan, lekin u yerda despotik boshqaruv shakllanmagan. Demak, masalaning mohiyati faqat sug'orish inshootlarining kattaligida emas. Bizning tadqiqotimiz tasdiqlashicha, Sharq davlatlarida despotik



boshqaruvning shakllanishida hal qiluvchi omil – suv resurslarini taqsimlash ustidan davlatning mutlaq nazorati bo'lgan. Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida suvning yillik va mavsumiy miqdori doimiy o'zgarib turadi, ayniqsa suv tanqis vaqtlarda davlat tomonidan suvni “adolatli” taqsimlash uchun tezkor va qat'iy qarorlar talab etiladi. Bu qarorlar ko'pincha huquqiy me'yorlar bilan oldindan belgilab qo'yilmagan bo'lib, mahalliy mansabdorlarning ixtiyoriy vakolatiga tayanadi. Hindistonlik sotsiolog T.Mabbetning fikricha, “sug'orish tizimlarida markazlashtirilgan suv taqsimoti mansabdor shaxslarning ixtiyoriy vakolatlariga tayanib, qonun doirasidan tashqarida ishlaydigan davlat hokimiyatining o'ziga xos shaklini yaratadi” [4, p. 77-95]. Ya'ni, suv resurslarini boshqarish zarurati Sharq mamlakatlarida ko'p hollarda huquqiy me'yorlardan chekinib, favqulodda markazlashgan boshqaruvni shakllantirgan.

Yuqoridagi tahlillar Sharqdagi siyosiy tizimlar va fuqarolik jamiyati holatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Sharq jamiyatlarida huquqiy nihilizmning kuzatilishi ham ana shu tarixiy jarayonlar mahsulidir – yillar davomida qonundan ko'ra an'ana va rahbarlar irodasi ustuvor bo'lib kelgan jamiyatda huquqiy madaniyat sust rivojlangan. Mustabid Sovet davrida esa bu holat yanada kuchayib, fuqarolar davlatga mutelik ruhida tarbiyalangan. Mustaqillikdan keyingi yillarda ushbu merosdan xalos bo'lish va fuqarolarning huquqiy ongini oshirish ustuvor vazifaga aylandi. Profesor X.Odilqoriyev kabi mahalliy olimlar ham O'zbekiston davlatchiligi tarixi suv resurslari bilan chambarchas bog'liq kechganini ta'kidlaydilar, bu esa bugungi fuqarolik jamiyati rivojiga bevosita aloqador xulosalardir [1, b. 88-92]. Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning hozirgi demokratik islohotlari jarayonida Sharq va G'arb tajribalarini qiyosiy o'rganish g'oyat muhimdir. Chunki milliy rivojlanish yo'lini belgilashda nafaqat global tajriba, balki o'z tariximiz saboqlari ham inobatga olinishi lozim.

O'zbekiston hukumati so'nggi yillarda aynan jamiyat nazoratini kuchaytirish va fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, “Harakatlar strategiyasi” (2017–2021 yillar) doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat boshqaruvida ochiqlikni oshirish, korrupsiyaga qarshi



kurash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi. Keyingi bosqichda qabul qilingan “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” hamda “O'zbekiston – 2030” kabi dasturlar fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, parlament va siyosiy partiyalar faolligini oshirish, davlat qarorlarini qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash kabi vazifalarni ilgari surmoqda. Xususan, oliy ta'lim tizimida “Ijtimoiy nazorat” fanining joriy etilishi va fuqarolik jamiyati institutlari uchun parlament grantlarining ajratilishi jamiyat nazorat salohiyatini oshirishga qaratilgan muhim yangiliklardir. Bu o'zgarishlar jamiyatimizda huquqiy ong va siyosiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilib, fuqarolik jamiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, tadqiqot doirasida O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibini diversifikatsiya qilish masalasi ham muhokama qilindi. Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, xususan sug'orma dehqonchilik ulushi hanuz yuqori. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, agrar sektorga haddan ziyod tayanish fuqarolarning iqtisodiy mustaqilligini cheklaydi va davlatga qaramligini oshiradi. Shu bois turizm, sanoat, xizmat ko'rsatish kabi sun'iy sug'orishdan kamroq bog'liq tarmoqlarni rivojlantirish fuqarolik jamiyatini kuchaytiruvchi omil bo'lishi mumkin [1, b. 12-13]. Masalan, turizm sohasining rivojlanishi tadbirkorlik va iqtisodiy erkinlikni kengaytirib, fuqarolarda mustaqil tashabbus ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa fuqaro faolligi va o'z haq-huquqlarini talab qilish madaniyatini yuksaltirishga hissa qo'shadi.

Yuqoridagi muhokamalar asosida, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillarida davlat boshqaruvining kuchli bo'lishi zarurligini ta'kidlagan edi. U o'tish davridagi murakkab islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kuchli ijroiya hokimiyati kerakligini qayd etgan: “Eski, qotib qolgan tizim bilan yangi tizim o'rtasidagi kurash keskin tus olgan hozirgi o'tish davrida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kuchli ijro hokimiyati zarur. Buni hayotning o'zi har qadamda taqozo etmoqda” [2, b. 14-15]. Ushbu fikr tarixiy o'tish davri sharoitida demokratik islohotlar barqarorligi uchun avval boshda kuchli davlat boshqaruvi muhim bo'lganini anglatadi. Bugungi kunga kelib esa, aynan shu kuchli davlat



boshqaruvidan bosqichma-bosqich kuchli fuqarolik jamiyati tomon o'tish strategiyasi ilgari surilmoqda. Bu holat davlat va jamiyat o'rtasidagi rol taqsimotini muvozanatlashtirish jarayoni boshlanganidan dalolat beradi. Endilikda asosiy urg'u davlatning barcha jabhalarda monopolligini pasaytirib, jamiyatning nazorat va tashabbuskorlik funksiyasini kuchaytirishga qaratilmoqda.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda demokratlashtirish jarayoni va fuqarolik jamiyati qurilishi o'ziga xos murakkab hodisa bo'lib, u uzoq davom etgan tarixiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida shakllanmoqda. Tadqiqot natijalari Sharq jamiyatlarida tarixan qaror topgan sug'orma dehqonchilik iqtisodiyoti va Sovet davridagi avtoritar tuzum merosi bugungi demokratik islohotlar dinamikasini sekinlashtirganini ko'rsatdi. Shu sababli, jamiyatning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini mustahkamlash hamda fuqarolarning huquqiy ongini oshirish davlatimiz uchun ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Biroq, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar jamiyat hayotiga yangi siyosiy-huquqiy nafas bag'ishlab, fuqarolik institutlarini rivojlantirish uchun huquqiy zamin yaratdi. Xususan, qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat hokimiyati ochiqqligini oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish borasidagi tashabbuslar ijobiy samara bermoqda. Demokratik jarayonlarda milliy tarixiy tajribani hisobga olish, Sharq va G'arbning ilg'or amaliyotini mahalliy sharoitga moslashtirish orqali O'zbekiston “shakldan mazmun sari” o'tish yo'lida dadil qadamlar tashlamoqda.

Kelgusida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini yuksaltirish uchun huquqiy madaniyatni oshirish, ta'lim va targ'ibot orqali fuqarolarda qonunga hurmat va faollik tuyg'usini kuchaytirish talab etiladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilib, aholi bandligini turli sohalarda ta'minlash orqali fuqarolarning davlat tuzilmalaridan mustaqil turmush kechirishi rag'batlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning demokratik yangilanish yo'li bevosita uning tarixiy-iqtisodiy asoslariga tayangan holda rivojlanmoqda. Kuchli davlat boshqaruvidan kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tish – bu mamlakatimiz tanlagan strategik yo'nalishdir. Ushbu jarayonda milliy o'ziga xosliklarni chuqur anglash va



ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish, demokratik tamoyillarni hayotga tatbiq etishda xalqning faol ishtirokini ta’minlash eng muhim shart ekanligi yana bir bor tasdiqlanadi. Demokratik islohotlarning bosh maqsadi – fuqarolar tomonidan boshqariladigan, kuchli huquqiy davlat va faol fuqarolik jamiyatiga asoslangan barqaror taraqqiyot modelini qaror toptirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Harakatlar strategiyasi taqdimotidagi nutqi matni. – Toshkent, 2017. – B.12-13.
2. Karimov I.A. *Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir*. 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – B.14-15.
3. Wittfogel K. *Oriental Despotism: A Comparative Study of Total Power*. – New Haven: Yale University Press, 1957. – P.35-48.
4. Mabbett I.W. “The ‘Hydraulic Society’ Debate: Irrigation and Politics in Historical Perspective” // *Journal of Asian Studies*. – 1978. – P.77-95.
5. Odilqoriyev X.T. *Davlat va huquq nazariyasi*. – Toshkent: Huquq va Jamiyat nashriyoti, 2019. – B.88-92.